



**2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi
bo'yicha tahliliy ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnidagi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatimizda 2 336 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 741 taga kamaygan.



Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 35 487 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,0 % savdo, 19,0 % sanoat, 8,6 % qurilish, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,9 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % axborot va aloqa hamda 24,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7,8 %




Savdo
26,0 %




Axborot va aloqa
1,6 %

Sanoat
19,0 %



Tashish va saqlash 2,9 %




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 2,1 %

Qurilish
8,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 7,9 %



Boshqa turlar
24,1 %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.04.2020 yil	
	01.04.2019 yil	01.04.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	29 172	35 487	121,6	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 220	2 765	124,5	7,8
Sanoat	5 555	6 746	121,4	19,0
Qurilish	2 548	3 047	119,6	8,6
Savdo	7 052	9 231	130,9	26,0
Tashish va saqlash	909	1 033	113,6	2,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 001	2 802	140,6	7,9
Axborot va aloqa	478	554	115,9	1,6
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	601	728	121,1	2,1
Boshqa turlari	7 808	8 581	109,9	24,1


Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10 512 ta), Urgut (3 079 ta), Pastdarg'om (3 008 ta) va Samarqand (2 584 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Qo'shrabot (803 ta), Paxtachi (889 ta) hamda Nurobod (1 042 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 33 237 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5 348 ta (19,2 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 26,1 % savdo, 18,9 % sanoat, 8,5 % qurilish, 7,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,9 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 24,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Samarqand shahri (10 014 ta), Urgut (2 992 ta), Pastdarg'om (2 767 ta), Samarqand (2 344 ta) va Ishtixon (1 758 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (747 ta), Paxtachi (850 ta) hamda Nurobod (964 ta) tumanlarida esa korxonalarining soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-mart oylarida 2 336 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`satkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 31,7 foizga kamaygan.

Yanvar oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Samarqand shahri (554 ta), Samarqand (211 ta), Pastdarg`om (195 ta) va Kattaqo`rg`on (183 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Qo'shrabot (51 ta), Paxtachi (65 ta) hamda Nurobod (73 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`satkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 015 ta), sanoat (420 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (277 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (220 ta), boshqa faoliyat turlari (175 ta), qurilish (126 ta) va sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (36 ta), tashish va saqlash (34 ta) hamda sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (33 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tijorat korxonalari
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 27 632 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 728 ta, oilaviy korxonalar – 5 006 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 16 392 ta, unitar korxona – 228 ta, aksiyadorlik jamiyati – 30 ta va boshqalar 248 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 528 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 98 taga yoki 22,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 528 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Samarqand shahri (231 ta), Urgut (43 ta), Jomboy (37 ta) va Samarqand (35 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Narpay (5 ta), Paxtachi (10 ta) hamda Kattaqo'rg'on (10 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 367 tasi qo'shma korxonalar, 161 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Samarqand viloyati	528	367	161
Samarqand sh.	231	143	88
Kattaqo'rg'on sh.	17	14	3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	23	20	3
Bulung'ur	24	9	15
Jomboy	37	31	6
Ishtixon	13	7	6
Kattaqo'rg'on	10	10	
Qo'shrabot	14	6	8
Narpay	5	5	
Payariq	16	9	7
Pastdarg'om	26	21	5
Paxtachi	10	5	5
Samarqand	35	29	6
Nurobod	10	10	
Urgut	43	38	5
Tayloq	14	10	4

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 30 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga kamaygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar (11 ta yoki jamidagi ulushi 36,7 %), Bulung'ur (5 ta yoki 16,7 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Oqdaryo, Jomboy, Ishtixon, Narpay, Payariq, Pastdarg`om, Nurobod va Tayloq (1 ta yoki 3,3 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 4 ta, Rossiya Federatsiyasi - 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020-yil yanvar-mart oylarida Isroiil Davlati, Tojikiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Belorussiya Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (13 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (8 ta), savdo (5 ta) va qurilish (2 ta), tashish va saqlash (1 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (1 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**




Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 27 490 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-aprel holatiga qaraganda 22,9 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8 657 tasi (31,5 %) Samarqand shahri, 2 511 tasi (9,1 %) Urgut, 2 278 tasi (8,3 %) Pastdarg'om, 2 054 tasi (7,5 %) Samarqand, 1 448 tasi (5,3 %) Ishtixon hamda 1 400 tasi (5,1 %) Payariq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 27 490 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8 626 tasi (31,4 %) - savdo, 6 242 tasi (22,7 %) - sanoat, 2 809 tasi (10,2 %) - qurilish, 2 605 tasi (9,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 2 406 tasi (8,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 960 tasi (3,5 %) - tashish va saqlash, 582 tasi (2,1 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 500 tasi (1,8 %) – axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 2 760 tasi (10,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Kichik korxona va mikrofirmalarning soni to'g'risida
MA'LUMOT**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

birlikda

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
	01.04.2020 y.	01.04.2020 y.	2020 yil yanvar- mart
Samarqand viloyati	29 515	27 490	2 293
Samarqand sh.	9 060	8 657	536
Kattaqo'rg'on sh.	1 041	968	80
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	1 153	992	86
Bulung'ur	1 075	984	100
Jomboy	1061	1 031	110
Ishtixon	1 574	1 448	133
Kattaqo'rg'on	1 433	1 331	182
Qo'shrabot	571	517	49
Narpay	904	866	90
Payariq	1 596	1 400	113
Pastdarg'om	2 510	2 278	194
Paxtachi	636	610	62
Samarqand	2 279	2 054	209
Nurobod	820	746	73
Urgut	2 590	2 511	175
Tayloq	1 212	1 097	101

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020-yil yanvar-mart oylarida 2 293 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,0 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (536 ta), Samarqand (209 ta), Pastdarg'om (194 ta), Kattaqo'rg'on (182 ta), Urgut (175 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (49 ta), Paxtachi (62 ta) hamda Nurobod (73 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1 015 ta), sanoatda (420 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (277 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (220 ta), boshqa turlarida (132 ta), va qurilishda (126 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'linqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (33 ta), tashish va saqlashda (34 ta) hamda axborot va aloqada (36 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 5 351 tani tashkil etib, ulardan 5 006 tasi yoki 93,5 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 58,8 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 29,7 % yoki 1 488 tasi sanoat, 27,2 % yoki 1 364 tasi savdo, 26,0 % yoki 1 300 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 7,8 % yoki 392 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,7 % yoki 36 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 40 tasi qurilish, 0,9 % yoki 45 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 15 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 6,6 % yoki 326 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**


	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Samarqand viloyati	781	100
Samarqand sh.	126	16,1
Kattaqo'rg'on sh.	18	2,3

tumanlar:

Oqdaryo	28	3,6
Bulung'ur	31	4,0
Jomboy	47	6,0
Ishtixon	23	2,9
Kattaqo'rg'on	91	11,7
Qo'shrabot	10	1,3
Narpay	38	4,9
Payariq	64	8,2
Pastdarg'om	79	10,1
Paxtachi	6	0,8
Samarqand	121	15,5
Nurobod	4	0,5
Urgut	47	6,0
Tayloq	48	6,1

2020-yil yanvar-mart oylarida 781 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 20 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Samarqand shahar (126 ta), Samarqand tumani (121 ta), Kattaqo'rg'on (91 ta) va Pastdarg`om tumanlari (79 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Qo'shrabot (10 ta), Paxtachi (6 ta) va Nurobod tumanlarida (4 ta) tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, birlikda



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 46,2 % yoki 361 tasi savdo, 20,4 % yoki 159 tasi sanoat, 19,3 % yoki 151 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 7,6 % yoki 59 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 4,9 % yoki 38 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

KTYADR – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro'yxatdan o'tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.



**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'lumi
Tel:71 230-85-42 (43)**